

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASINI
RIVOJLANTIRISH****CHORSHANBIYEVA GULSANAM ABDURASHID QIZI****QOBILOVA ZARINA ZAHRIDDIN QIZI****XOLDOROVA ZARNIGOR ADHAMJON QIZI***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi**1-bosqich talabalari***SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Pedagogika va psixologiya kafedrası**o'qituvchi u.shomurotov@dpi.uz +998915107420*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlaridan eng muhimi bo'lgan xotirani kuchaytirish va yanada mustahkamlash yuzasidan boradi. Bu o'rinda tarbiyachi tomonidan bir necha mnemonik usullardan foydalanib, bolalarning xotira jarajonlarini kuchaytirishga qaratiladi. Bu usullarning amalda qo'llanilishi bolalar xotirasiga ancha ijobiy ta'sir qiladi.

Kalit so'zlar: faoliyat, o'yin, nerv sistemasi, bilish jarayonlari, diqqat, xotira, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat,

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni uddasidan ham chiqa olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'linishi tasodifiy hol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Bog'cha yoshdagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligidadir. Bir qator rus psixologlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshdagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega.

Birinchiidan, bog'cha yoshdagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk yoshdagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya'ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egi- luvchan, ta'sirotda beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar (assotsiatsiyalar) juda yengillik bilan

hosil bo‘ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar qo‘shiq, ritmli she’r, qi- ziqarli va chuqur ta’sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo‘zg‘aluvchan bo‘lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) juda beqaror bo‘ladi, ya’ni mustahkam bo‘lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko‘pincha narsa va hodisalarning bog‘cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsional ta’sir qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo‘zg‘alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo‘lganligi tufayli ular o‘xshash va birdaniga, ya’ni bir vaqtning o‘zida juda ko‘p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko‘p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog‘cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo‘lgan, ya’ni idrok qilgan narsalarini bir boshidan so‘zlab berish iltimos qilinsa, u ma’noli va izchil qilib so‘zlab berolmaydi. Bola bunday holda gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko‘rgan juda ko‘p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo‘ladi.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali izchillik yo‘q. Shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqur o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar bog‘cha yoshidagi bolalarga bir vaqtning o‘zida haddan tashqari ko‘p narsalar ko‘rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar.

O‘tkazilgan tajribalarning ko‘rsatishicha, kichik bog‘cha yoshidagi bolalarga nisbatan o‘rta va katta yoshdagi bog‘cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg‘aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o‘sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o‘sgan sari ular narsa va hodisalarni surunkasiga, ya’ni to‘g‘ri kelganicha emas, balki tanlab, ya’ni o‘zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo‘la boshlaydilar. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan eksperimental tekshirishlar natijalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so‘zlarning ma’nosiga tushunib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan. Lekin bog‘cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to‘la tushuniladigan ma’lumotlar berilganda ochiq ko‘rinadi.

Kichik bog‘cha yoshidagi bolalarda ko‘proq obrazli xotira rivojlangan bo‘ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko‘rgan narsalarini yaxshi eslarida olib qoladilar. Buning asosiy sababi, birinchidan, kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning idroklari aniq obrazli xarakterga ega, ikkinchidan, ularda hali nutq to‘la-to‘kis shakllanmagan. Bolalar yuqori guruhlarda nutq- ni anchagina egallab olganlaridan keyingina so‘z orqali ifodalangan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo‘ladilar.

Bolalar juda ko‘p narsalarni asosan turli o‘yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko‘pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo‘ladi. Bu esa eslarida olib qolgan narsalarni ma‘lum bir sistemaga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotirala- ridagi narsalar tartibsiz, bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo‘lgan tartibsizlikni yo‘qotish va xotira- sini o‘stirish juda ko‘p jihatdan tarbiyachilarga bog‘liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o‘yinlardan, mashq va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «magazin-magazin» o‘yini, har turli loto o‘yinlari, topishmoqli o‘yinlar, didaktik va maxsus xotira o‘yinlari shular jumlasidandir. Umuman, bolaning ma‘lumotni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog‘cha yoshida xotiraning hamma tiplari o‘sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ostida o‘ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o‘zlashtiradilar. Mexanik tarzda o‘zlashtiriladigan nutq ma‘lumotlari ham qisman harakat xotirasiga kiradi. Shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalar tez aytiladigan turlicha ritmdagi she‘rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar (masalan, bekinmashoq, o‘yinini o‘ynash oldidan aytiladigan «sanash»lar). Bekinmashoq o‘yining «sanash»larida hech qanday ma‘no yo‘q, lekin juda ifodali, jarangli ritmika bor.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda emotsional xotira yaxshi bo‘lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq bo‘ladi. Katta odamlar kuchli emotsional ta’sir qilgan ba’zi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsional ta’sir qilgan narsalarni ham ba’zan eslaridan chiqarib qo‘yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o‘stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog‘cha yoshidagi davrida tugallanmay bolaning bundan keyingi taraqqiyotida, ya’ni ta’lim-tarbiya va turmush tarziga qarab o‘zgarib, o‘sib boradi.

Shuni ham qayd qilib o‘tish kerakki, ma‘lumotni idrok qilishda sezgi organlari qanchalik ko‘p ishtirok etsa, ma‘lumot shunchalik tez va puxta esda qoladi. Bu haqda

mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quyidagi gaplari juda ham o‘rinlidir. «Bolaning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo‘lsa, hidlash va ta‘m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak». Demak bola xotirasi ustida qancha ko‘p va puxta ishlansa bolaning maktab ta‘limini o‘zlashtirishi ham shunchalik oson kechadi.

Bolalar xotirasini rivojlantirish uchun bir qator xotira rivojlantiruvchi metodikalardan foydalanishimiz mumkin. Ulardan biri sonlarni sanash metodikasi. Bunda 1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlar tanlab olinadi va ular juft qilib sanaladi. Masalan 1-10, 2-9,3-8, 4-7... sonlar shunday sanashda davom etilib boriladi,uzluksiz davom ettiriladi. Bu jarayon miyya hujayralarining ham ishlash jarayonini kuchaytiradi, shu tahlid o‘nliklar oshib boradi. Bu bolalarda matematik tafakkurni ham rivojlantiradi.

Ikkinchi metodikamiz farqini top metodikasidir. Bunda bolalarga xonadagi yoki stol ustidagi buyumlrning o‘rnini eslab qolish topshirig‘i beriladi. So‘ngra, ular boshqa xonaga o‘tib turadilar, xonadagi ba‘zi jixozlarning o‘rni almshtiriladi, birortasi olib qo‘yiladi. Xonaga bolalar chaqirilib ulardan qanday o‘zgarish so‘raladi. Bu bolalarda geometrik xotirani yaxshilaydi.

Uchinchi mnemonika metodikamiz bu – so‘zni o‘zgartir metodikasi. Bu jarayonda bola yoki bolalar guruhiga bir nechta so‘zlar aytiladi, bolalarga bu so‘zlarning harflari o‘zgartirilib, avvalgi so‘zlar hamda yangi so‘zlar juft qilib yoddan aytishlari so‘raladi. Bu metodika bolalarning solishtirma xotirasini rivojlantiradi, chet tilini tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

To‘rtinchi metodika bu – so‘z xotirasini rivojalntirish yordam beruvchi –“ yangi hikoya tuz metodikasi”. Bu metodika jarayonida har bir bolani o‘rtaga chiqarib, xonadagi jihozlar hamda bolalar ismlaridan foydalangan holda yangi gaplardan iborat bolalarcha hikoyalar tuzish so‘raladi, masalan, bugun men xonaga kelganimda Bobur stulda o‘tirgan edi, Aziza kasha eyotgan edi, Azim rasm chizayotgan edi, bog‘cha opam bolalarga list tarqatayotgan edi va hokazo. Keyingi bosqichda bola o‘rtoqlarining kiyimlari va jihozlarning rangini qo‘shib aytisalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu metodika bolalarning xotirasini yaxshilash bilan bir qatorda ularning yanada jamoaga birikishiga olib keladi, bu usulni yangi kelgan bolalarda ko‘proq qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi usulimiz – ism shariflarni yodlab qol metodi. Bunda dastavval bitta tasodifiy bolaning ism, sharifini yodlash aytiladi, bir qancha vaqt o‘tkach so‘rab olinadi, ism shariflar soni bolaning xotira kuchiga qarab ko‘paytirib boriladi. Bu uslub bolaning eslab qolish jarayonini rivojlantirib qolmay, uning tafakkurida rasmiy so‘zlashuv jarayonini ham tezlashtiradi. Unli – undosh metodi. Bu usulni bog‘chadagi tayyorlov guruxi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida olib boorish zarur chunki ular

harflarni tanishadi. Bu metod jarayonida guruxdan ikkita bola ajratib olinadi. Ularga teng miqdoridagi unli va undosh harf bilan boshlangan so'zlar aytiladi. Birinchisi unli bosh so'zlarni, ikkinchisi undosh bosh so'zlarni ajratib olib yodlab qolishadi. Bu xotira jarayoni bilan birgalikda bolalarning savodxonlik darajasiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyeva. *Yosh davrlari va pedagogic psixologiya (o'quv-me-todik qo'llanma)*. TDPU, — T.: — 2004.
2. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent — 1998.
3. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. — Toshkent. — 2003.
4. S.X. Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent. — 2009.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 123-128.
6. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, M. M. F., & SALIMJONOVNA, E. F. (2024). BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *TADQIQOTLAR. UZ*, 37(4), 203-209.
7. MELIKBOBOYEVICH, S. U., AKRAMOVNA, O. M., & O'G'LI, X. M. A. (2024). SHAXSNING RIVOJLANISHIGA QOBILYATNING O'RNINI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 37(5), 12-17.
8. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, A. M. A., QIZI, T. D. U., & QIZI, Q. S. Q. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA QISQA MUDDATLI GURUHLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH. *TADQIQOTLAR. UZ*, 37(4), 154-158.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SHAKLLARI VA METODLARI. *Journal of new century innovations*, 50(2), 189-195.
10. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 123-128.
11. Melikboboyevich, S. U., & Istamqulovna, N. S. (2024). XX ASRNING BOSHLARIDA BOLA RIVOJLANISH NAZARIYALARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 33(2), 235-239.
12. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA O'YIN FAOLIYATINING TA'SIRI. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(3), 24-31.